Ma'lumotlarni to'plash jarayonida bir nechta manbalardan foydalanildi. Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi (Instagram, Telegram va TikTok) ochiq statistik ma'lumotlar, jumladan, obunachilar soni, postlar joylashtirish chastotasi va foydalanuvchilar faolligi ko'rsatkichlari yig'ildi. Ikkinchidan, korxonalar vakillari bilan yarim tuzilgan suhbatlar (semi-structured interviews) o'tkazildi. Ushbu yondashuv ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlar turli manbalardan (mijozlar, korxona rahbarlari va statistik ma'lumotlar bazalaridan) to'plandi hamda triangulyatsiya (triangulation) usuli qo'llanildi. Mazkur yondashuv olingan xulosalarning aniqligi, obyektivligi va ilmiy asoslanganligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi (Saunders va Lewis, 2023).

Tadqiqotda savdo korxonalarning raqamli nufuzini baholash uchun nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlardan, balki sifat tahlili usullaridan biri hisoblangan sentiment tahlilidan ham foydalanildi. Mazkur usul yordamida "Texnomart", "MediaPark" va "Credit Asia" kabi yetakchi korxonalarning ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchilar tomonidan qoldirilgan izohlari tahlil qilinib, mijozlarning brendga nisbatan munosabati va hissiy baholari aniqlandi. Zamonaviy yondashuvlarda sentiment tahlili iste'molchilarning xarid qilish va qayta xarid qilish niyatlarini prognozlashda samarali metodologik instrumentlardan biri sifatida e'tirof etiladi (Liu, 2023).

Shunday qilib, tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv ijtimoiy tarmoqlar marketingining savdo korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sirini kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan tarzda baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning amaliy qismida respublikamizda faoliyat yuritayotgan 38 ta mahalliy savdo korxonasi o'rtasida kross-seksional tahlil o'tkazildi. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni 2026-yilning mart–aprel oylarida korxonalarga bevosita tashrif buyurish, ularning rahbarlari va mas'ul xodimlari bilan suhbatlar o'tkazish hamda ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini tahlil qilish orqali amalga oshirildi.

Tadqiqotda ishtirok etgan 38 ta mahalliy korxona asosan Xorazm viloyatida faoliyat yurituvchi kichik va o'rta biznes subyektlaridan iborat bo'lib, ular faoliyat yo'nalishiga ko'ra mebel ishlab chiqarish (8 ta), kiyim-kechak va poyabzal savdosi (12 ta), maishiy texnika savdosi (6 ta), oziq-ovqat mahsulotlari savdosi (7 ta) hamda umumiy ovqatlanish xizmatlari (5 ta) sohalarini qamrab oldi.

Suhbatlar jarayonida respondentlarga korxonalarning raqamli platformalardagi faolligi, jumladan, kontent joylashtirish chastotasi va mijozlar murojaatlariga javob berish tezligi bilan bog'liq savollar berildi. Shuningdek, korxonaning rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalari mavjudligi, SMM faoliyati uchun mas'ul xodim ajratilganligi, yangi mijozlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali murojaat qilish ulushi hamda reklama xarajatlarining samaradorligi kabi ko'rsatkichlar atroflicha o'rganildi.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan korxonalar bilan o'tkazilgan suhbatlar va ularning raqamli faoliyati tahlili natijasida korxonalar ikki asosiy guruhga ajratildi:

1. SMM-faol korxonalar (22 ta) – ijtimoiy tarmoqlarda haftasiga kamida 4–5 marta kontent joylashtiradigan, mijozlar bilan muntazam muloqot olib boradigan, izoh va murojaatlarga o'z vaqtida javob qaytaradigan hamda reklama kabinetlaridan faol foydalanadigan korxonalar.

2. SMM-nofaol korxonalar (16 ta) – ijtimoiy tarmoqlarda sahifalariga ega bo'lsa-da, ularni muntazam yuritmaydigan, asosan statik ma'lumotlar bilan cheklanadigan yoki raqamli marketing imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanmaydigan korxonalar.

O'tkazilgan suhbatlar va korxonalarning ochiq iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili bir qator muhim tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi (1-jadval).



Ko'rsatkich	SMM-faol guruh (n=22)	SMM-nofaol guruh (n=16)	Farq
Korxonaga bo'lgan ishonch darajasi	4.6 / 5.0	2.8 / 5.0	+36%
Oylik mijozlar o'sishi (o'rtacha)	18.5%	4.2%	+14.3%
Mijozlar bilan aloqa tezligi	8 baravar tez	8 baravar sekin	8 baravar tez

Manba: Muallif ishlanmasi

Suhbat natijalariga ko'ra, SMM-faol korxonalarning 85 foizi yangi mijozlarning kamida 40–50 foizi aynan ijtimoiy tarmoqlar, xususan Instagram va Telegram platformalari orqali jalb etilayotganini qayd etdi. SMM-nofaol korxonalarda esa ushbu ko'rsatkich 10 foizdan kam ekanligi aniqlandi.

Xususan, mebel ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalardan biri yangi mijozlarning qariyb 90 foizi ijtimoiy tarmoqlar orqali buyurtma berayotganini ta'kidladi. Korxona vakilining fikriga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan bitta videorolik qisqa vaqt ichida ko'plab potensial mijozlarga mahsulot haqida batafsil ma'lumot yetkazish imkonini beradi. Bu esa an'anaviy usulda har bir mijoz bilan alohida ishlash uchun sarflanadigan vaqtni tejash, axborot tarqatish samaradorligini oshirish hamda mijozlar bilan muloqot jarayonini yanada qulay tashkil etishga xizmat qiladi.

Korxonaga bo'lgan ishonch darajasini aniqlash maqsadida tadqiqot jarayonida SMM-faol va SMM-nofaol savdo korxonalari tashrif buyurgan mijozlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Mazkur yondashuv iste'molchilarning bevosita tajribasi va subyektiv baholarini aniqlash orqali korxona imijini amaliy jihatdan baholash imkonini berdi. So'rov jarayonida respondentlardan korxonaga bo'lgan umumiy ishonch darajasini 5 ballik Likert shkalasi asosida baholash so'raldi (1 – juda past ishonch, 5 – juda yuqori ishonch).

Tadqiqotda har ikkala guruh (SMM-faol va SMM-nofaol) korxonalari mijozlari qamrab olinib, ularning baholari alohida yig'ildi va o'rtacha qiymatlar hisoblab chiqildi. Olingan natijalarga ko'ra, SMM-faol korxonalarda mijozlar ishonch darajasi o'rtacha 4,6 ballni tashkil etgan bo'lsa, SMM-nofaol korxonalarda ushbu ko'rsatkich 2,8 ballga teng bo'ldi. Ushbu natijalar 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bilan mos keladi hamda ijtimoiy tarmoqlardagi faol ishtirok korxonaning ishonchlik darajasini sezilarli ravishda mustahkamlashini ko'rsatadi.

Shuningdek, so'rovnoma natijalarini verifikatsiya qilish maqsadida "Texnomart", "MediaPark" va "Credit Asia" korxonalari ijtimoiy tarmoqlardagi izohlari asosida sentiment tahlili (kayfiyat tahlili) o'tkazildi. Bunda mijozlar munosabati 5 ballik shkala bo'yicha ("a'lo" – 5 ball, "yaxshi" – 4 ball, "qoniqarli" – 3 ball, "qoniqarsiz" – 2 ball) tasniflandi. Olingan sentiment ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymati so'rovnoma orqali aniqlangan ishonch darajasi bilan yuqori darajadagi korrelyatsiyani namoyon etdi. Bu esa tadqiqot natijalarining metodologik jihatdan ishonchligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar (SMM-faol korxonalar – 4,6 ball, SMM-nofaol korxonalar – 2,8 ball) shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitda korxonaning faol va shaffof kommunikatsiyasi iste'molchilar munosabatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda muntazam yangilanib boriladigan kontent hamda real vaqt rejimidagi muloqot mijozlarda korxonaning barqarorligi va ishonchligi haqida ijobiy tasavvur shakllantiradi. Raqamli maydondagi faolliги cheklangan korxonalar esa zamonaviy iste'molchilar bilan muloqotni kengaytirish va ishonch darajasini yanada mustahkamlash imkoniyatlariga ega ekanligi kuzatildi.

Oylik mijozlar o'sish sur'atini aniqlash maqsadida tadqiqot davomida SMM-faol va SMM-nofaol savdo korxonalari tashrif buyurgan yangi mijozlar bilan bevosita suhbatlar o'tkazildi. Ushbu yondashuv orqali mijozlarning korxona haqida qaysi manba orqali xabardor bo'lgani aniqlanib, marketing kanallarining samaradorligi baholandi. Suhbat davomida respondentlarga: "Siz ushbu korxona haqida qayerdan eshitdingiz?" degan savol berildi.

Javoblar ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Telegram, TikTok), tavsiyalar (do'stlar va tanishlar), an'anaviy reklama vositalari hamda tasodifiy tashriflar kabi asosiy toifalarga ajratildi. Yig'ilgan ma'lumotlar tizimlashtirilib, har bir guruh bo'yicha yangi mijozlar ulushi hisoblab chiqildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, SMM-faol korxonalarda yangi mijozlarning asosiy qismi ijtimoiy tarmoqlar orqali jalb qilinadi. Xususan, respondentlarning katta qismi aynan ijtimoiy platformalarda uchratilgan reklama, post yoki tavsiyalar asosida korxonaga murojaat qilganini ta'kidladi. Bu esa mazkur korxonalarda oylik mijozlar o'sish sur'atining o'rtacha 18,5 foizni tashkil etishiga xizmat qilgan.

SMM-nofaol korxonalarda esa yangi mijozlarning asosiy qismi og'zaki tavsiyalar yoki bevosita tashriflar orqali shakllangani kuzatildi. Ijtimoiy tarmoqlarning ushbu jarayondagi ulushi nisbatan past bo'lib, natijada oylik mijozlar o'sish sur'ati o'rtacha 4,2 foizni tashkil etdi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, SMM-faol savdo korxonalarida mijozlar bilan aloqa tezligi sezilarli darajada yuqori. Buning asosiy sababi shundaki, mijozlar ushbu korxonalar haqida oldindan ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumotga ega bo'lib, ko'plab savollarini bevosita onlayn platformalar orqali yuboradilar. Ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllangan dastlabki axborot maydoni mijoz va korxona o'rtasidagi muloqotni soddalashtiradi hamda tezlashtiradi.

Xususan, mahsulotlar, narxlar va xizmatlar haqida oldindan taqdim etilgan kontent mijozlarning qo'shimcha savollarini kamaytiradi, qolgan murojaatlar esa tezkor tarzda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida aniqlangan mijozlar bilan aloqa tezligidagi 8 baravar tafovut raqamli iqtisodiyot sharoitida vaqt omilining muhim raqobat ustunligiga aylanayotganini ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlarning savollariga tezkor javob berish (pre-sale service) xarid qilish qarorining tezroq shakllanishiga yordam beradi hamda korxonaning mijozlarga yo'naltirilganlik darajasini oshiradi.

Ushbu holat Matyusupov (2025) tomonidan asoslangan smart texnologiyalarning xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdagi o'rni haqidagi xulosalarga mos keladi. Ya'ni, raqamli vositalar orqali ta'minlanadigan tezkor kommunikatsiya mijozlarda brendga nisbatan ishonchni mustahkamlab, ularning ehtiyojlarini qisqa muddatda qondirish orqali korxonaning bozordagi mavqeini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar marketingi nafaqat korxona haqida xabardorlikni oshiradi, balki yangi mijozlar oqimini shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli platformalar orqali tarqatilayotgan vizual kontent va foydalanuvchilar fikrlari potensial mijozlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida SMMdan samarali foydalanayotgan 22 ta korxona mahsulot narxlarini ayrim raqobatchilarga nisbatan 5–10 foiz yuqori belgilagan taqdirda ham, mijozlarning brendga sodiqligi va shakllangan ishonchi hisobiga sotuv hajmini barqaror saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

Quyidagi jadvalda ijtimoiy tarmoqlarda faol (A-guruh) va nisbatan sust faoliyat yurituvchi (B-guruh) savdo korxonalarining ikki oylik faoliyat natijalari qiyosiy ravishda aks ettirilgan (2-jadval).

2-jadval
SMM strategiyasining savdo ko'rsatkichlariga ta'siri

Ko'rsatkichlar	A-guruh (SMM faol)	B-guruh (SMM nofaol)	Farq (%)
Mijozlarni jalb qilish xarajatlari (CAC)	\$2.5	\$6.8	-2.72 baravar
Mijozlarning qayta xarid qilish darajasi (RR)	38%	12%	3.2 baravar
Brendning taniluvchanligi (Reach)	tez	sekin	10 baravar
Savdo hajmining o'sishi (6 oyda)	28%	5%	5.6 baravar

Manba: Muallif ishlanmasi

Mijozlarni jalb qilish xarajatlari (Customer Acquisition Cost – CAC) ko'rsatkichini aniqlashda har ikki guruh korxonalarining marketing xarajatlari va jalb qilingan yangi mijozlar soni o'rtasidagi nisbat tahlil qilindi. Tadqiqot davomida korxonalar vakillari bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida ularning reklama uchun sarflagan oylik byudjeti hamda shu davrda jalb qilingan yangi mijozlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar yig'ildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, CAC ko'rsatkichi SMM-faol guruhda SMM-nofaol guruhga nisbatan 2,7 baravar past bo'lib, mos ravishda 2,5 AQSh dollari va 6,8 AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu natija marketing resurslaridan foydalanish samaradorligining yuqoriligini ifodalaydi. Mazkur farq ijtimoiy tarmoqlarning aniq maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan (targeting) imkoniyatlari bilan izohlanadi. An'anaviy marketingda mablag'lar keng auditoriyani qamrab olishga yo'naltirilsa, SMMda korxonalar o'z mahsulot va xizmatlariga qiziqishi yuqori bo'lgan iste'molchi segmentlari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa har bir jalb qilingan mijoz tannarxini optimallashtirish hamda korxonaning moliyaviy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mijozlarning qayta xarid qilish darajasi (Repeat Rate – RR) ko'rsatkichini aniqlash maqsadida tadqiqot jarayonida korxona mijozlari bilan bevosita suhbatlar o'tkazildi. Bunda ularning xaridlar chastotasi va kelajakda mazkur brendga qayta murojaat qilish ehtimoli o'rganilib, korxonalar tomonidan taqdim etilgan ichki statistik ma'lumotlar bilan qiyoslandi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini oshirish maqsadida ushbu ko'rsatkichlar sentiment tahlili natijalari bilan ham integratsiya qilindi.

Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi mijozlar tomonidan bildirilgan ijobiy fikrlar hamda tavsiya xarakteridagi sharhlar qayta xarid qilish ehtimoli bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi. Bu esa raqamli platformalarda



shakllanayotgan ijobiy iste'molchi kayfiyati korxonaning barqaror mijozlar bazasini shakllantirishda va RR ko'rsatkichini yuqori darajada saqlashda muhim indikator ekanligini tasdiqladi.

Mijozlarning qayta xarid qilish darajasi bo'yicha olingan natijalar (38 foiz va 12 foiz) o'rtasidagi sezilarli tafovut ijtimoiy tarmoqlarning nafaqat savdo kanali, balki mijozlarni saqlab qolish (customer retention) vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. SMM-faol korxonalar mijozlar bilan xariddan keyingi davrda ham muloqotni davom ettirib, elektron tavsiyalar (e-WoM), aksiyalar va turli interaktiv kontentlar orqali brendga nisbatan hissiy bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Brend taniluvchanligini har tomonlama baholash maqsadida ijtimoiy tarmoqlardagi statistik ko'rsatkichlar (obunachilar soni, postlar qamrovi va ko'rishlar soni) bilan bir qatorda respondentlar o'rtasida maxsus so'rovnoma ham o'tkazildi. Mazkur tahlillar sentiment tahlili metodologiyasi bilan boyitilib, brend qamrovining sifati ham baholandi. Ya'ni, brend taniluvchanligi nafaqat axborotning yetib borish darajasi, balki foydalanuvchilarning ushbu axborotga nisbatan hissiy munosabati orqali ham o'lchandi.

Sentiment tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, qamrov darajasi yuqori bo'lgan postlarda ijobiy munosabat ko'rsatkichlarining yuqoriligi brendning iste'molchilar xotirasida ijobiy shakllanishiga va taniluvchanlik darajasining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, SMM-faol korxonalarda brend qamrovi yuqori darajada bo'lib, keng auditoriyani qamrab olgan. SMM-nofaol korxonalarda esa qamrov ko'lamini nisbatan cheklangan va asosan mahalliy iste'molchilar segmenti bilan chegaralangan. Ushbu tafovut ijtimoiy tarmoqlarning keng auditoriyaga tezkor va samarali tarzda axborot yetkazish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Savdo hajmining o'sishini aniqlash maqsadida tadqiqotda ishtirok etgan korxonalarning so'nggi ikki oy ichidagi savdo ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ma'lumotlar korxonalar vakillari bilan o'tkazilgan suhbatlar hamda mavjud hisobot materiallari asosida shakllantirildi.

Natijalarga ko'ra, SMM-faol korxonalarda savdo hajmi o'rtacha 28 foizga oshgan bo'lsa, SMM-nofaol korxonalarda ushbu ko'rsatkich 5 foizni tashkil etdi. Mazkur farq ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi mijozlarni jalb qilish, mavjud mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash hamda marketing faoliyatini samarali tashkil etish bilan bog'liq.

Bundan tashqari, SMM orqali shakllangan ijobiy imij va iste'molchilar ishonchi savdo hajmining barqaror o'sishiga xizmat qilgan. Ushbu natijalar ijtimoiy tarmoqlar marketingining korxonalarning moliyaviy natijalariga bevosita va sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy tarmoqlar marketingi savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlar reklama xarajatlarini optimallashtirishga yordam beradi. An'anaviy reklama vositalariga nisbatan ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilish nisbatan tejamkor va samarali hisoblanadi. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar keng auditoriyani qamrab olish imkonini beradi. Internet foydalanuvchilari sonining ortib borishi korxonalar uchun yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlar bilan bevosita muloqot qilish mumkin. Bu esa mijozlarning ehtiyoj va talablarini aniqlash hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga yordam beradi. To'rtinchidan, ijtimoiy tarmoqlar korxona brendini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Korxonalar o'z sahifalarida foydali va qiziqarli kontent joylashtirish orqali iste'molchilar e'tiborini jalb qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo korxonalarining raqobatbardoshligini faqat an'anaviy marketing usullari bilan ta'minlash yetarli emas. Bu borada Chaffey va Ellis-Chadwick (2022) raqamli marketing strategiyalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, ko'p kanalli platformalarda iste'molchi xulq-atvorini real vaqt rejimida tahlil qilish va mobil ekotizimlar orqali shaxsiylashtirilgan kommunikatsiyani yo'lga qo'yish zamonaviy korxonalarning bozorda ustunlikka erishishida muhim omil hisoblanadi. Korxona va mijoz o'rtasidagi raqamli aloqalarning mustahkamlanishi nafaqat sotuv hajmini oshiradi, balki iste'molchilarda brendga nisbatan kuchli hissiy bog'liqlikni shakllantiradi. Bu esa ijobiy e-WoM jarayonlarini faollashtirib, korxonaning bozordagi barqaror nufuzini va uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Shu sababli savdo korxonalari o'z faoliyatida ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishi, raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqishi va ularni amaliyotga joriy etishi maqsadga muvofiq. O'tkazilgan nazariy tahlil va 38 ta mahalliy korxona faoliyatini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Raqamli ishtirok — strategik zaruriyatdir. Savdo korxonalari uchun ijtimoiy tarmoqlar endi faqat qo'shimcha kommunikatsiya vositasi emas, balki raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim shartidir.
- Sifat miqdordan ustun. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, faqat obunachilar soni emas, balki auditoriya bilan o'rnatilgan faol va mazmunli muloqot raqobatbardoshlikni belgilaydi.



– Ma'lumotlarga asoslangan marketing ustunlik yaratadi. 2020-yildan keyingi global iqtisodiy tendensiyalar mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligi ijtimoiy tarmoqlardan olinadigan katta ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish va iste'molchilar xulq-atvorini aniq segmentatsiyalash darajasiga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

Amaliy takliflar:

- Savdo korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun nafaqat SMM menejeri shtatini joriy etish, balki PR, ya'ni jamoatchilik bilan aloqalar menejeri faoliyatini ham tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.
- Mijozlar bilan aloqa vaqtini (response time) maksimal darajada qisqartirish, jumladan, avtomatlashtirilgan chat-botlardan foydalanish tavsiya etiladi.
- Ijtimoiy tarmoqlardagi tahliliy ma'lumotlarni muntazam ravishda marketing strategiyasiga integratsiya qilish zarur.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida mijozlar sodiqligini (loyalty) shakllantirishda tizimli marketing yondashuvi muhim o'rin tutadi. Iste'molchilarning uzoq muddatli sodiqligiga erishish uchun nafaqat xizmat sifati, balki marketing kommunikatsiyalarining samaradorligi ham muhimdir. Savdo korxonalari ijtimoiy tarmoqlar marketingi orqali mijozlar bilan doimiy aloqa o'rnatishi, ularning ehtiyojlarini tizimli tahlil qilib borishi natijasida mijozlarning brendga sodiqligini mustahkamlashi hamda korxonaning barqaror raqobatbardoshligini ta'minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Appel, G., Grewal, L., Hadi, R., & Stephen, A. T. (2020). The future of social media in marketing. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 48(1), 79–95. <https://doi.org/10.1007/s11747-019-00695-1>
2. Cheung, M. L., Pires, G. D., Rosenberger, P. J., & Leung, W. K. S. (2022). The influence of social media marketing elements on consumer-brand engagement and brand knowledge. *Asia Pacific Journal of Marketing and Logistics*, 34(3), 464–482. <https://doi.org/10.1108/APJML-04-2019-0262>
3. Dwivedi, Y. K., Hughes, L., Baabdullah, A. M., Ribeiro-Navarrete, S., Giannakis, M., Al-Debei, M. M., et al. (2023). Metaverse marketing: How the metaverse will shape the future of consumer behavior and marketing practice. *Psychology & Marketing*, 40(4), 750–776. <https://doi.org/10.1002/mar.21767>
4. Hair, J. F., Hult, G. T. M., Ringle, C. M., Sarstedt, M., Danks, N. P., & Ray, S. (2021). *Partial Least Squares Structural Equation Modeling (PLS-SEM) Using R: A Workbook*. Cham: Springer International Publishing. <https://doi.org/10.1007/978-3-030-80519-7>
5. Hanaysha, J. R. (2022). Impact of social media marketing features on consumer purchase decision in the fast-food industry. *Heliyon*, 8(9), e10242. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e10242>
6. Li, F., Larimo, J., & Leonidou, L. C. (2023). Social media marketing strategy: Definition, conceptualization, taxonomy, validation, and future agenda. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 51(1), 51–70. <https://doi.org/10.1007/s11747-022-00886-3>
7. Liu, B. (2023). *Sentiment Analysis: Mining Opinions, Sentiments, and Emotions* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9781108639286>
8. Matyusupov, B. (2024). Turizmni rivojlantirishda SOLOMO va SOCOMO raqamli marketing strategiyalaridan samarali foydalanish yo'llari: adabiyotlar sharhi. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(10), 349–360. <https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/view/736>
9. Matyusupov, B. (2025). Examining the relationship between destination loyalty and marketing in tourism: Insights from structural equation modeling. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(6), 91–106. <https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/view/1021>
10. Matyusupov, B., Bande, B., Castro-González, S., & Matniyozov, M. (2025). How smart tourism technologies influence destination image, tourist satisfaction, and e-WoM: The critical impact of place dependence. *BAR – Brazilian Administration Review*, 22(4), e240203. <https://doi.org/10.1590/1807-7692bar2025240203>
11. Saunders, M. N. K., Lewis, P., & Thornhill, A. (2023). *Research Methods for Business Students* (9th ed.). Harlow: Pearson Education.
12. Tajvidi, R., & Karami, A. (2021). The effect of social media on firm performance. *Computers in Human Behavior*, 115, 105174. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2017.09.026>
13. Verhoef, P. C., Broekhuizen, T., Bart, Y., Bhattacharya, A., Dong, J. Q., Fabian, N., & Haenlein, M. (2021). Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda. *Journal of Business Research*, 122, 889–901. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2019.09.022>
14. Zollo, L., Carranza, R., Faraoni, M., Díaz, E., & Rialti, R. (2022). Explaining consumer refunds in e-commerce: The role of social media information and customer satisfaction. *Journal of Business Research*, 145, 148–155. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2022.02.083>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>